



## TURKMANISTON VA O'ZBEKISTON O'RTASIDAGI ALOQALARNING RIVOJLANISHI

---

*Sayfullayev Hamza*

*Nizomiy nomidagi TDPU*

*Tarix fakulteti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Turkmaniston va O'zbekiston o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishining yangi bosqichi ochiqlik va yumshoqlik siyosati haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar;** prezident, Shavkat Mirziyoyev, Gurbanguli Berdimuhamedov, xorijiy davlat, aloqalar, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlik, energetika, qishloq xo'jaligi, sanoat, kimyo, transport va logistika.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning taklifiga binoan 2017-yil 6-mart kuni davlat tashrifi bilan Ashxobodga keldi. Ta'kidlash joizki, bu Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida xorijiy davlatga ilk tashrifidir. Shavkat Mirziyoyev o'zining saylovoldi dasturida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish marosimidagi nutqida O'zbekiston barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik qilishini bayon etgan. Prezidentimizning mazkur davlat tashrifi O'zbekiston tashqi siyosatda yaxshi qo'shnihilik munosabatlariga alohida ahamiyat qaratayotganini yaqqol tasdiqladi. Xalqimiz turkman xalqi bilan ham azaldan yonma-yon, ahil-inoq yashab kelgan, bir daryodan suv ichgan. Savdo-sotiq qilgan, bir-birining madaniyatini boyitgan. Bu yaqinlik mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik rivojiga asos bo'lmoqda. O'zbekiston – Turkmaniston aloqalari 2007-yilda imzolangan Do'stona munosabatlar va har tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash to'g'risidagi davlatlararo shartnoma asosida izchil taraqqiy etmoqda. Oliy darajadagi tashriflar muntazamlik kasb etgani davlatlararo munosabatlar yuksak darajada ekanidan dalolatdir. O'zbekiston va Turkmaniston Prezidentlarining bu galgi uchrashuvi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov asos solgan o'zaro manfaatli va faol muloqotlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Ashxobodning Mustaqillik maydonida rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> <https://uzreport.news/Prezident-Shavkat-Mirziyoyev-Turkmanistonda-Gurbanguli-Berdimuhamedov-bilan-uchrashdi>. 21.10.2022



Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhamedov faxriy qorovul safi oldidan o'tdilar. Ikki davlat madhiyalari yangradi. O'g'uzxon saroyida Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhamedovning yakkama-yakka muzokarasi bo'ldi. Unda mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikning bugungi holati va uni yanada rivojlantirish istiqbollari, tomonlarni qiziqtirgan dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashildi. Shavkat Mirziyoyev Gurbanguli Berdimuhamedovni Turkmaniston Prezidenti etib qayta saylangani munosabati bilan samimiy tabrikladi. O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida mustahkam hamkorlik qaror topganini, bu tashrif izchil rivojlanib kelayotgan o'zaro manfaatli va faol muloqotlarning mantiqiy davomi ekanini alohida ta'kidladi. Gurbanguli Berdimuhamedov Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Prezidenti etib saylanganidan keyin davlat tashrifi bilan birinchi bo'lib Turkmanistonga kelgani uchun minnatdorlik bildirib, bu tarixiy voqea mamlakatlarimiz hamkorligida foydalanilmagan imkoniyatlarni ishga solish va aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qilishini qayd etdi. Mamlakatlarimizning siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorligini rivojlantirish borasidagi maqsad va yondashuvlari mushtarakligi, tomonlar mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalarda bir-birini qo'llab-quvvatlab kelayotgani ta'kidlandi. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi<sup>2</sup>. Turkmanistonning tashqi siyosati betaraflik, tinchliksevarlik, yaxshi qo'shniçilik tamoyillariga qurilgan. O'zbekiston va Turkmaniston xalqaro maydonda bir-birini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida ham izchil hamkorlik qilinmoqda. Mamlakatlarimizning qo'shni Afg'onistonda faqat siyosiy yo'l bilan barqarorlik o'rnatilishi borasidagi fikri ham mushtarak ekanligi tasdiqlandi. Terrorizm, ekstremizm, narkotrafik va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash yuzasidan fikr almashildi. Prezidentlar muloqotni ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokarasida davom ettirdilar. Unda savdo-iqtisodiyot, neft-kimyoy, transport kommunikatsiyalari, qishloq xo'jaligi,

<sup>2</sup> Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish — taraqqiyot omili // Gazeta.uz. 2021 yil 13 iyul



madaniyat, turizm va boshqa sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratildi. Savdo-iqtisodiy aloqalarni diversifikatsiya qilish, eksport-import nomenklaturasini kengaytirish, tovar ayirboshlash hajmini ko'paytirish masalalari muhokama qilindi.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi mavjud salohiyatga mos emasligi, uni kengaytirish uchun iqtisodiyot tarmoqlaridagi imkoniyatlarni yana bir bor tahlil etish zarurligi ta'kidlandi. Hukumatlararo tadbirlar, ishbilarmon doiralar o'rtasidagi uchrashuvlar aloqalarni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. 2016-yilning sentabr va shu yil yanvar oylarida Toshkentda Savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston – Turkmaniston hukumatlararo komissiyasining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Transport sohasi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. O'zbekiston hududi orqali Turkmanistonga, Turkmaniston hududi orqali O'zbekistonga yuk tashiladi. Shu jihatdan O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusining amaliy ifodasi bo'lgan O'zbekiston – Turkmaniston – Eron – O'mon xalqaro transport-kommunikatsiya koridorini barpo etish<sup>3</sup> bo'yicha 2011-yili imzolangan bitim geostrategik ahamiyatga egadir.

Davlatimiz rahbarining ushbu tashrifi doirasida ochiladigan Amudaryo ustida qurilgan avtomobil va temir yo'l ko'priklari mazkur transport yo'lagingining muhim qismi hisoblanadi. O'zbekiston ham, Turkmaniston ham uglevodorod resurslariga boy. Ularni eksport qilish o'zaro muvofiq harakat qilishni talab etadi. Ana shunday yaqin hamkorlik mamlakatlarimiz uchun energetika yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish va jahon bozorlariga chiqish borasida keng imkoniyatlar yaratmoqda. 2009-yilda ishga tushgan Turkmaniston – O'zbekiston – Qozog'iston – Xitoy gaz quvuri buning yorqin misolidir.

Muzokarada hamkorlikning yangi yo'nalishlarini ishga solish, savdo-iqtisodiy aloqalar qamrovini kengaytirish, hududlarning to'g'ridan-to'g'ri hamkorligini rivojlantirishga kelishib olindi. O'zbek va turkman xalqlarining tarixi va madaniyati mushtarak, urf-odat va an'analari o'xshash. Ajdodlarimizning ilmiy-ijodiy merosi xalqlarimizning umumiy mulkiga aylangan. Bu yaqinlik madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik rivojiga mustahkam asos bo'lmoqda. Ikki mamlakat madaniyat va san'at namoyandalari, sportchilari O'zbekiston va Turkmanistonda o'tkaziladigan turli konsertlar, festival va ko'rgazmalar, sport musobaqalarida faol ishtirok etmoqda. 2016-yil sentabrda Turkmanistonda o'zbek kinosi kunlari,

---

<sup>3</sup> Jaloliddin T. Yangi davrda Turkmaniston va O'zbekiston munosabatlari //INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 102-103.



noyabrda mamlakatimizda Turkmaniston madaniyati kunlari o'tkazildi<sup>4</sup>. Mamlakatlarimiz sayyohlik sohasida ham ulkan imkoniyatlarga ega. "Buyuk ipak yo'li" loyihasi doirasida o'zaro bog'langan sayohatlar tashkil etilmoqda. Ilm-fan sohasidagi hamkorlik ham yuksalmoqda. Ikki mamlakat olimlari qishloq xo'jaligi, neft kimyosi va boshqa sohalarda birgalikda izlanishlar olib bormoqda.

Muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov Qo'shma bayonotni, O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston o'rtasida strategik sheriklik to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Tegishli vazirlik va idoralar o'rtasida 2018-2020-yillarda iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnoma, temir yo'l transporti sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga oid memorandum, 2017-2019-yillarga mo'ljallangan madaniy-gumanitar hamkorlik dasturi, 2017-2018-yillarda tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik dasturi, O'zbekistondan Turkmanistonga qishloq xo'jaligi texnikalari va kimyo mahsulotlari yetkazib berish to'g'risidagi shartnomalar imzolandi. Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda Prezidentlar ushbu tashrif ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb masalalarini muhokama etish, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik muammolar yuzasidan fikr almashish uchun qulay imkoniyat yaratganini ta'kidladilar. Muzokaralar ochiqlik, o'zaro anglashuv va do'stona ruhda o'tgani, imzolangan hujjatlar O'zbekiston va Turkmaniston xalqlari manfaatlariga xizmat qilishi qayd etildi. Shavkat Mirziyoyev Gurbanguli Berdimuhamedovga mamlakatimizda yaqinda chop etilgan Maxtumqulining "Elingga baxsh ayla" deb nomlangan kitobini sovg'a qildi. Turkmaniston Prezidenti kitob eng yaxshi tuhfa ekanini ta'kidlab, Prezidentimizga minnatdorlik bildirdi. Kunning ikkinchi yarmida Prezidentlar Xalqaro Axalteki otlari majmuasi bilan tanishdilar. Turkmaniston Prezidenti davlatimiz rahbariga zotdor ot sovg'a qildi. Prezidentimiz Turkmaniston Mustaqillik monumenti poyiga gulchambar qo'ydi. Faxriy mehmonlar xiyoboniga ko'chat o'tqazdi. Bu xiyobonga Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 2007-yilda ko'chat o'tqazgan edi. Davlatimiz rahbari Saparmurat Niyozov maqbarasiga gul qo'ydi. O'tganlarning ruhi poklariga Qur'on tilovat qilindi. Turkmaniston prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning O'zbekistonga tashrifi doirasida mamlakatlar avtomobillar va elektrotexnika yig'ish hamda turizm sohasida klasterlar tuzish bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirish to'g'risida kelishuvga erishishdi. Turkmaniston tomoni 300 mln dollarga o'zbek tovarlarini

<sup>4</sup> Sh.Sh.Sayfiddinov, & L.M.Tashpulatova. (2023). YEVROPA ITTIFOQI VA MARKAZIY OSIYO MAMALAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO ALOQALARI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI. T.2020 B.35



xarid qilishni rejalashtirmoqda va «Turkmanboshi» dengiz porti infratuzilmasini taklif qilmoqda. O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi tovar aylanmasi oxirgi uch yil ichida uch baravarga o‘ydi, deya ma’lum qildi prezident Shavkat Mirziyoyev seshanba kungi brifingda. Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, ikkala mamlakat o‘rtasidagi tovar aylanmasi 2017 yildagi 177,4 mln dollardan 2020 yilda 527,1 mln dollarga ko‘tarilgan. Bizning tovar aylanmamizda bunday raqam yo‘q edi. Pandemiyaning barcha qiyinchiliklariga qaramasdan joriy yilda biz o‘zaro savdoni 25%ga oshirishga muvaffaq bo‘ldik<sup>5</sup>... Bu bizning munosabatlarimizda yaxshi, aniq qonuniy baza yaratilganligini anglatuvchi real raqamlar», — deya Shavkat Mirziyoyevning so‘zlarini keltiradi «Gazeta.uz» muxbiri. Davlat rahbarining ta’kidlashicha, chegaraoldi savdo markazini tuzish to‘g‘risidagi bitim, shuningdek, uchinchi mamlakatlardan import qilinadigan tovarlar o‘rnini O‘zbekiston va Turkmanistonda ishlab chiqariladigan va ikkala mamlakat bozorida talabgir bo‘lgan raqobatbardosh mahsulotlar bilan almashtirish to‘g‘risidagi kelishuv o‘zaro savdoning o‘sishiga olib keladi.

Uning so‘zlariga ko‘ra, tomonlar sanoat kooperatsiyasini muhokama qilishgan, shu bilan birga, energetika, qishloq xo‘jaligi, sanoat, kimyo, transport va logistika sohalarida aniq loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro hamkorlikni kengaytirishga kelishib olishgan. Shavkat Mirziyoyev avtomobillarni yig‘ish, elektrotexnik mahsulotlar, qurilish materiallari, paxtani qayta ishlash va bog‘dorchilik mahsulotlari, logistik infratuzilmani yaratish bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirish to‘g‘risida yo‘l xaritasi qabul qilinishini ta’kidladi.

Biz turizm sohasida ham klasterlar tuzish bo‘yicha kelishuvga erishdik. Aslida bizda brend shaharlar mavjud», — dedi u. Shavkat Mirziyoyev hududlararo hamkorlikni faollashtirish masalalariga ham e’tibor qaratdi, shuningdek, Lebap va Doshog‘uz viloyatlari delegatsiyalarining Buxoro va Xorazm viloyatlariga bo‘lgan samarali tashriflarini qayd etdi. Prezidentning ta’kidlashicha, chegaraoldi viloyatlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri doimiy muloqoti, shuningdek, O‘zbekiston va Turkmaniston hududlarining haryillik forumini o‘tkazish iqtisodiy hamkorlikning o‘sishiga xizmat qiladi. Ushbu formatdagi uchrashuvlarning birinchisi 2022 yil Xivada bo‘lib o‘tadi. Transport sohasidagi hamkorlik yo‘nalishida ikkala mamlakat o‘rtasidagi yuk tashish yil boshidan 15%ga o‘sgan. Tomonlar kelgusida ham transport koridorlaridan, shu jumladan «Ashxobod kelishuvi»dan (Eron, Ummon, Turkmaniston va O‘zbekiston o‘rtasidagi xalqaro transport va tranzit koridori),

<sup>5</sup> Mirzaxmedov I.K., Makulov J.T. -Markaziy Osiyo Geografiyasi –T:Namangan, 2020. 5-10 betlar





samarali foydalanish uchun kerakli sharoitlarni yaratishga kelishishdi. «Biz turkman do'stlarimiz bilan „Turkmanboshi“ dengiz portining noyob salohiyatidan kelgusida ham foydalanishni ko'zlayapmiz. Bugun ham ushbu dengiz porti orqali Yevropaga chiqishni muhokama qildik», — dedi Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston va Turkmaniston prezidentlari Afg'onistondagi vaziyat bo'yicha ham fikr almashishdi. Ularning fikriga ko'ra, Afg'onistondagi vaziyat Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, davlat rahbarlari mamlakatlarimiz va butun mintaqa xalqining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha birgalikdagi yondashuvlarni ishlab chiqqan holda «shifokorlik diplomatiyasi»ning maqsad va vazifalarini birga amalga oshirish bo'yicha kelishib olishdi. Shavkat Mirziyoyev Ashxobodda «Toshkent» bog'ining qurilgani uchun Gurbanguli Berdimuhamedovga minnatdorchilik bildirdi. «Gurbanguli Myalikguliyeovich ushbu loyiha ustida bizning xalqimiz qadriyatlariga rioya etgan holda, ehtiyotkorona ishlayotganini men bilaman», — dedi u va Toshkentdagi «Ashxobod» bog'i poytaxt aholisi va mehmonlarining sevimli joylaridan biriga aylanganini ta'kidladi. Turkmaniston va O'zbekistonning mintaqadagi yirik loyihalarni, xususan «Turkmaniston — O'zbekiston — Qozog'iston — Xitoy<sup>6</sup>» gaz quvurlari, amalga oshirishda ishtirok etayotganligini ta'kidladi. Bundan tashqari, tomonlar Markaziy Osiyodan Janubiy Osiyoga elektr energiyasini yetkazib berish hajmlarini oshirishga tayyorligini bildirdi. «Turkmaniston „Turkmanboshi“ xalqaro dengiz portining infratuzilmasidan „O'zbekiston-Turkmaniston-Kaspiy dengizi“ marshruti bo'yicha Qora dengiz portlari orqali Yevropaga chiqish maqsadida multimodal transport koridorini to'liq yo'lga qo'yish uchun foydalanishga berishga tayyor», — dedi Gurbanguli Berdimuhamedov. Turkmaniston prezidentining ma'lum qilishicha, tashrif davomida mamlakat 300 mln dollardan ortiq qiymatga ega o'zbek tovarlarini sotib olish bo'yicha shartnomalarni imzolash bo'yicha taklifni taqdim etgan. Toshkentdagi Markaziy Osiyo xalqaro instituti muzokaralar natijasi bo'yicha O'zbekiston va Turkmaniston prezidentlarining qo'shma bayonotini e'lon qildi. Turkman tomoni 2021 yil 24 oktabrda o'tkazilishi rejalashtirilgan O'zbekiston prezidenti saylovlari asnosida elektoral jarayonning borishini yuqori baholadi hamda bo'lajak saylovlar «yuqori demokratik standartlar asosida o'tishiga va O'zbekiston fuqarolarining o'sib borayotgan siyosiy ongi va jamoatchilik faolligi darajasini yaqqol namoyish etishiga» ishonch bildirdi. Davlat rahbarlari yaqin kelajakda tovar ayirboshlash hajmini yiliga 1 mlrd AQSh dollarga

<sup>6</sup> [https://uza.uz/O'zbekiston – Turkmaniston: yaqin qo'shnicilik va qardoshlik rishtalari mustahkamlanmoqda.](https://uza.uz/O'zbekiston-Turkmaniston:yaqin-qo'shnicilik-va-qardoshlik-rishtalari-mustahkamlanmoqda)  
7.03.2017



muvozanatli ravishda oshirish maqsadida o'zaro savdoni diversifikatsiya qilish, uning nomenklaturasini har ikki mamlakat bozorida talabgir bo'lgan yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar yordamida kengaytirish muhimligini ta'kidladilar. Ikki mamlakat hududidan o'tuvchi xalqaro transport marshrutlarining raqobatbardoshligi va jozibadorligini oshirish maqsadida tomonlar tariflarni yanada optimallashtirish va tashqi savdo yuklarini tranzit tashishda qulay sharoitlar taqdim etishga qaratilgan tizimli o'zaro foydali hamkorlikni davom ettirishga tayyorliklarini yana bir bor tasdiqladilar. Tomonlar ikki mamlakat shaharlari o'rtasida avtobus va aviatashuvlarni rivojlantirish O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasida yuk, yo'lovchi va turistlar oqimlarini oshirishga xizmat qilishini ta'kidladilar. Prezidentlar «Turkmanboshi» xalqaro dengiz porti va «Osiyo-Tinch okeani mamlakatlari — Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston — Turkmaniston — Ozarbayjon — Gruzuya — Yevropa<sup>7</sup>» xalqaro multimodal marshrutining mavjud yuqori salohiyatini to'liq ishga solish zarurligini ta'kidladilar.

Turkmaniston o'zbek tomonining BMT shafeligida Transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish Mintaqaviy markazini ochish to'g'risidagi tashabbusini qo'llab-quvvatladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Sh.Sh. Sayfiddinov, & L.M. Tashpulatova. (2023). Yevropa ittifoqi va Markaziy Osiyo mamalakatlari bilan tashqi savdo aloqalari rivojlanish dinamikasi. T. 2020

2. Mirzaxmedov I.K., Makulov J.T. -Markaziy Osiyo Geografiyasi – T: Namangan, 2020

3. Jaloliddin T. Yangi davrda Turkmaniston va O'zbekiston munosabatlari //INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS. – 2024.

4. Normamatova P. Mustaqillik yillarida O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarining yo'lga qo'yilishi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2021

5. Durdonaxon M. MARKAZIY OSIYO: XILMA-XILLIKDAGI BIRLIK //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – T. 6. – №. 9. – C. 165-167.

---

<sup>7</sup> Normamatova P. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY ALOQALARINING YO'LGA QO'YILISHI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2021. B. 876